



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TASAVVUF ADABIYOTIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YETUKLIK MASALASI

Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi
Turon universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola tasavvuf adabiyotida adolat va ma'naviy yetuklik masalasini chuqur tahlil qiladi. Maqolada adolat tushunchasi insonning ichki va tashqi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy tamoyil sifatida ko'rib chiqiladi. Tasavvufiy matnlar va dostonlar asosida adolat inson qalbida poklik, samimiylik va ijtimoiy mas'uliyat orqali namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. Ma'naviy yetuklik – insonning adolatli qaror qabul qilish, o'z harakatlari va boshqalarga nisbatan mas'uliyatini anglash qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: zohidlik, Fariddin Attor, Uvays Qaraniy, zulm, Anushirvon.

ТЕМА СПРАВЕДЛИВОСТИ И ДУХОВНОЙ ЗРЕЛОСТИ В СУФИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Эшдавлатова Азиза Убайдулла кизи
Университет Турон, преподаватель

Аннотация

В данной статье проводится глубокий анализ вопросов справедливости и духовной зрелости в суфийской литературе. Понятие справедливости рассматривается как моральный принцип, имеющий важное значение как во внутренней, так и во внешней жизни человека. На основе суфийских текстов и эпических произведений показано, что справедливость проявляется в сердце через чистоту, искренность и социальную ответственность. Духовная зрелость интерпретируется как способность человека принимать справедливые решения и осознавать свои действия и ответственность перед другими.

Ключевые слова: аскетизм, Фарид ад-Дин Аттар, Увайс Каран, угнетение, Ануширван.

THE ISSUE OF JUSTICE AND SPIRITUAL MATURITY IN SUFI LITERATURE

Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi
Turon University, Lecturer

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the issues of justice and spiritual maturity in Sufi literature. The concept of justice is examined as a moral principle that plays a crucial role in both the inner and outer life of a human being. Based on Sufi texts and epics, it is shown that justice manifests in the heart through purity, sincerity, and social responsibility. Spiritual maturity is interpreted as a person's ability to make just decisions and to understand their own actions and responsibilities toward others.

Keywords: asceticism, Farid al-Din Attar, Uways Qarani, oppression, Anushirvan.

Tasavvuf adabiyoti bir necha yuz yillardan beri sirli mavo kabi o'zidan ma'naviy nur taratib kelmoqda. Tasavvuf adabiyoti bir necha yuz yillardan buyon go'yo sirli bir manba kabi inson qalbiga ma'naviy nur sohib, uni poklanish va kamolot sari yetaklab kelmoqda. Dastlab

zohidlik, ya'ni dunyo lazzatlaridan tiyilish harakati sifatida yuzaga kelgan tasavvuf IX asrga kelib mustahkam nazariy asosga ega bo'ldi va asta-sekin alohida bir ilm sohasi sifatida shakllandi. Shu jarayonda uning asosiy tushunchalari, yo'nalishlari va nazariy tarkibiy qismlari tizimli holga keltirildi.

Adabiyotlar va metodlar (References and Methods). Abu Nasr Sarroj (vafoti 988 yil)ning "Kitob al-luma", Abu Is'hoq Kalobodiyning "At-Ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf", Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf", Abu Tolib Makkiyning "Qut ul-qulub", Sullamiyning "Risolat al-malomatiya", Qushayriyning "Risola fi at-tasavvuf", Al-Hujviriylarning "Kashf ul-mahjub", Abdulloh Ansoriyning "Manozil us-soirin", [1, 23-b.] Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" kabi asarlari tasavvuf ma'rifatini nazariy jihatdan asoslaydi.

Natija va muhokama (Results and Discussion). Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, insonning haqiqiy kamoloti uning nafaqat tashqi hayoti, balki ichki dunyosi, ruhiy va axloqiy holati bilan belgilanadi. Bu kamolot esa ilm olish, chuqur tafakkur yuritish, o'z ustida ishlash va nafsni tarbiyalash orqali asta-sekin yuksalib boradi. Inson hayoti davomida adolat tushunchasi bilan hamnafas yashab, o'z amallarini shu mezon asosida baholashi lozim. Zero, adolat nafaqat jamiyat barqarorligining asosi, balki insonning ma'naviy yetukligini belgilovchi muhim fazilatdir. Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida Uvays Qaraniyga bag'ishlangan qism mavjud. Unda adolat haqida quyidagicha keltiriladi: "Foruq Uvaysni ko'rdi. U bir shol kiyib olibdi, o'n sakkiz ming olamning boyligi o'sha shol ostida edi. Va Foruq buni ko'rib xalifalikdan kechdi va dedi:

– Bu xalifalikni bir nomga alishadigan kimsa bormi?

Uvays dedi:

– Bu ne baho qo'ymoq, bozorga solmoq? Qo'ygil, kimga kerak bo'lsa, olsin! Sahobalar bu so'zni eshitib faryod qildilar:

– Ey Foruq barcha musulmonlarning ishini zoye qilib bo'lmas. Bir soat qilgan adolating, yetmish yillik ibodatdan yaxshiroq. Rasulullohning hadislarining mazmuni shunday, – dedilar". [2, 31-32 b.] Ushbu parchada shohlarning adolat haqida gap ketar ekan, ularning adolatidan ko'plab insonlarning najot topishi, xalqning rag'batlari, adolat bilan boshqarilgan jamiyatda turli ijtimoiy muammolar kamayishi, haqsizliklar tugashi nazarda tutiladi. Bu parcha tasavvufiy va tarixiy mazmunga ega bo'lib, unda dunyo boyligi bilan ruhiy boylik, hokimiyat bilan ma'naviyat o'rtasidagi farq yoritiladi.

Hikoyada Foruq, ya'ni Umar ibn Xattob Uvaysni ko'radi. Uvays juda oddiy, hatto kambag'al ko'rinishda — shol kiyib olgan holda tasvirlanadi. Lekin muallif uning ichki dunyosini "o'n sakkiz ming olamning boyligi o'sha shol ostida edi" deb ta'riflaydi. Bu ibora ramziy bo'lib, Uvaysning tashqi ko'rinishi oddiy bo'lsa-da, uning qalbi, imoni va ma'naviy darajasi nihoyatda yuksak ekanini anglatadi. Ya'ni haqiqiy boylik mol-dunyoda emas, balki ruhiy kamolotdadir.

Foruq Uvaysni ko'rgach, undan qattiq ta'sirlanadi va o'zining xalifalik maqomini arzimas deb his qiladi. Shu sababli u xalifalikdan voz kechmoqchi bo'lib, uni boshqalarga berishni taklif qiladi. Bu holat orqali dunyoviy mansab va hokimiyat ham aslida o'tkinchi va nisbiy ekanligi ko'rsatiladi. Sahobalar esa bu holatga e'tiroz bildiradilar. Ular Foruqni bu qaroridan qaytarishga harakat qilib, uning zimmasidagi mas'uliyat juda katta ekanini ta'kidlaydilar. Ularning aytishicha, bir soat adolat bilan hukm yuritish yetmish yillik ibodatdan afzalroqdir. Bu fikr orqali jamiyatni adolat bilan boshqarish, insonlar haq-huquqini himoya qilish Islomda juda ulug' amal ekanligi ko'rsatib beriladi. Boshqalarning haqqini himoya qilish va adolatni qaror toptirish ham eng oliy ibodatlardan biri hisoblanadi. Shol va boylik o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali ichki va tashqi dunyo farqi ochib beriladi, dialoglar orqali esa fikrlar yanada jonli ifodalanadi.

Hazrat Alisher Navoiy ham "Saddi Iskandariy" dostonining 19-20-21-22 boblarida adolat haqida so'z yuritadi va yuqoridagi keltirilgan hadisni biroz o'zgarish bilan dostonida quyidagicha keltiradi: "Ikki dunyo shohi Rasuli arab o'zining hadisida adolat ahliga shunday bashorat qilgan edi: "Adolat bilan o'tgan bir soat inson-u jin haylining toat ibodatidan afzaldir" ... Adolat bobida

soʻz ketganida Haq oʻz ismini “al-adl” – “odillik” bilan yakunlagan. Bu ismga, yaʼni odillikka kishilar diqqati koʻprik boʻlgani uchun u butun olamga adolatning nizomini – tartib qoidasini tuzib berdi”. [3, 87-88 b.] Adolat shohlar uchun zeb boʻlsa, oʻz xalqining ravnaqi koʻngil xotirjamligiga sabab boʻladi. Sharq maʼnaviy merosida adolat gʻoyasi eng muhim falsafiy, diniy va ijtimoiy-siyosiy tushunchalardan biri sifatida alohida oʻrin tutadi. Islomiy siyosiy tafakkurda esa adolat faqatgina shaxsiy axloqiy fazilat darajasida emas, balki davlat boshqaruvining asosiy tamoyili sifatida ham talqin etiladi. U jamiyat barqarorligini taʼminlovchi, ijtimoiy muvozanatni saqlovchi va insonning maʼnaviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Shu bois, adolat tamoyili nafaqat hukmdorlar faoliyatida, balki har bir insonning kundalik hayotida ustuvor qadriyat sifatida eʼtirof etilgan. Mumtoz adabiyotda adolat timsoli sifatida shoh Anushirvon obrazi alohida ulugʻlanadi. U tarixiy shaxs sifatida Sosoniylar davlati hukmdori boʻlgan boʻlsa-da, badiiy asarlarda u ideal podshoh – adolatli, donishmand va xalqparvar hukmdor timsoliga aylangan. Shu bois mumtoz shoirlar uning nomini tilga olganida, aslida adolat, insof va toʻgʻrilik kabi yuksak fazilatlarni madh etganlar. Alisher Navoiy asarlarida Anushirvon koʻpincha adolat mezoni sifatida tilga olinadi. Navoiy podshohlarni aynan uning adolatiga ergashishga chorlab, zulm va nohaqlikdan tiyilishga undaydi. Agar hukmdor Anushirvondek adolatli boʻlsa, mamlakat obod, xalq esa farovon boʻlishini ilgari suradi: “Anushirvonshoh mazhabdan musulmon boʻlmasa ham, lekin adolat bobida mashhur edi. Garchi kofirning oʻrni doʻzax boʻlsa ham, odillik sifati uni aʼrofga dalolat qildi. Uning dunyodan oʻtib ketganiga ming yillar boʻlgan esa-da, adolati ovozi hamon yashaydi”. [3, 88-b.] Shuningdek, Saʼdiy Sheroziyning mashhur “Guliston” asarida ham Anushirvon haqida ibratli hikoyatlar keltiriladi. Ulardan birida shohning ov paytida tuz sotib olish uchun xizmatkorini yuborgani, ammo u tuzni bepul olishni taklif qilganida, shoh bunga qatʼiyan qarshi chiqib, “kichik zulm ham katta zulmga yoʻl ochadi” mazmunida nasihat qilgani tasvirlanadi. Bu hikoya orqali muallif adolatning eng kichik masalalarda ham buzilmasligi kerakligini taʼkidlaydi.

Bundan tashqari, mumtoz adabiyotda Anushirvonning “zanjiri adl” – yaʼni adolat qoʻngʻirogʻi haqidagi rivoyat ham keng tarqalgan. Rivoyatga koʻra, saroy darvozasiga osilgan bu qoʻngʻiroqni har qanday mazlum kelib chalishi mumkin boʻlgan, shunda shoh bevosita uning arziini eshitgan. Bu obraz adolatning ochiqqligi va hamma uchun tengligini ifodalovchi kuchli badiiy timsol sifatida talqin etiladi.

Shu tariqa, mumtoz adabiyotda Anushirvon obrazi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki adolatning mukammal namunasi, ideal hukmdor timsoli sifatida badiiylashtirilgan. U orqali shoir va mutafakkirlar jamiyatni adolatga, hukmdorlarni esa masʼuliyat va insofga chorlaganlar.

Xojaning “Miftoh ul-Adl” [4, 58-61 b.] asari oʻrta asrlar Sharq tafakkurida adolat masalasiga bagʻishlangan eng mukammal manbalardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Mazkur asar oʻz davri uchun oddiy nasihatnoma darajasidan ancha yuqori turib, keng qamrovli maʼnaviy-huquqiy qoʻllanma vazifasini bajargan. Unda jamiyatni boshqarish, insoniy munosabatlarni tartibga solish va axloqiy meʼyorlarni mustahkamlashda adolatning oʻrni atroflicha yoritilgan. Xoja hikoyatlarida shohning adolati faqat hukm chiqarishdagi toʻgʻrilik bilan cheklanmay, uning ichki pokligi, halol niyati va xalq dardini anglay olishi bilan belgilanadi. Adolat bu yerda tashqi tartib emas, balki ruhiy yetuklik va maʼnaviy poklik ifodasidir. Shu bois adolatli shoh mansab yoki boylik bilan emas, balki diyonat, samimiyat va insof bilan baholanadi. Asarda shoh xalq qalbiga quloq tutadigan, qarorlarini masʼuliyat bilan qabul qiladigan, xolis va donishmand rahbar sifatida tasvirlanadi. Vazir va zohid oʻrtasidagi suhbatlar esa Sharq adabiyotiga xos tarbiyaviy uslubni aks ettirib, insonning asl fazilatlari aynan sinov va ruhiy izlanish jarayonida namoyon boʻlishini koʻrsatadi.

Tasavvuf taʼlimotida adolat tushunchasi, avvalo, insonning ichki olami va maʼnaviy kamoloti bilan chambarchas bogʻliq holda talqin etiladi. Bu qarashlarga koʻra, haqiqiy adolat tashqi boshqaruvdan oldin qalbdagi qaror topishi lozim. Inson oʻz nafsini tarbiya qilib, uni meʼyorida tutsa, yaʼni haddan oshish va kamchilikdan saqlansa, ichki muvozanat yuzaga keladi.

Ana shu ichki adolat jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalikning asl manbai sifatida qaraladi, chunki ruhiy poklikka erishgan shaxs zulm va nohaqlikdan yiroq bo'ladi. Shu bilan birga, tasavvufda jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar ham adolat asosida qurilishi lozimligi ta'kidlanadi. Biroq bu yerda asosiy e'tibor tashqi tenglikdan ko'ra, insonlarning bir-biriga nisbatan rahm-shafqat, insof va halollik bilan muomala qilishiga qaratiladi. Boy va kambag'al, shoh va oddiy inson o'rtasidagi farqlar tabiiy deb qaralsa-da, ularning o'zaro munosabatida zulm, kibr yoki mensimaslik bo'lmasligi — adolatning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa (Conclusion). Tasavvufda shaxsiy mas'uliyat masalasi alohida o'rin tutadi. Har bir inson o'z qalbi, niyati va amallari uchun javobgar deb qaraladi. Adolat bu yerda faqat tashqi tartib-intizom emas, balki insonning o'ziga nisbatan halol bo'lishi, ya'ni o'z kamchiliklarini tan olib, ularni tuzatishga intilishidir. Shuningdek, ilohiy qonun-qoidalarga amal qilish tasavvufda adolatning eng oliy ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Chunki ilohiy haqiqatga mos yashash orqali inson nafaqat o'zini, balki atrofidagi muhitni ham poklaydi va uyg'unlikka xizmat qiladi.

Umuman olganda, tasavvufiy qarashlarda adolat tashqi boshqaruv vositasi emas, balki ichki kamolot, ruhiy poklik va ilohiy haqiqatga muvofiq yashashning ifodasi sifatida talqin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent. Movarounnahr, 2009. – B. 23.
2. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2013. – B. 31-32.
3. Navoiy A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 87-88.
4. Poshshoxoja. Miftoh ul-adl va Gulzor. – Toshkent: O'zdamnashr, 1962. – B. 58-61.
5. Qosimov M. Alisher Navoiy tasavvufiy asarlari tahlili. – Toshkent, 2015.